

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TOSHKENT
DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGYALARI”
KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida:

UDK: 338:37c(575.1)

Zokirov Sanjar Zoxidjon o‘g‘li

**“Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim muassasalarini
innovatsion faoliyatini tatqiq etish”**

**5234100–Raqamli iqtisodiyoti (tarmoqlar va sohalari bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.n., Vafoyev B.R.

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

20 -sonli bayonnoma “ 27 ” 04 2023 y.

Kafedra mudiri: Abdullayev M.K.

M.K. Abdullayev

22.05.23

imzo

sana

Ilmiy rahbar: Vafoyev B.R.

B.R. Vafoyev

22.05.23

imzo

sana

Talaba: Zokirov S.S.

S.S. Zokirov

22.05.23

imzo

sana

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrası

mudiri, dos. M.K. Abdullayev M.K. Abdullayev

“29” 05 2023 yil

Himoya 2023 yil “29” 05 soat 10⁰⁰ da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tadi.

ANNOTATSIYA

Raqamli transformatsiyaning hozirgi davrida ta'lim tizimlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Ushbu tadqiqot ta'lim tizimlarida qo'llaniladigan turli xil texnologik innovatsiyalarni, masalan, virtual va to'ldirilgan reallik, o'yinlashtirish va moslashuvchan o'quv platformalarini o'rganishga qaratilgan. Talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirish, shaxsiylashtirilgan o'quv tajribasi va o'qitish samaradorligini oshirish kabi ushbu texnologiyalarning potentsial afzalliklari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot ushbu texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish bilan bog'liq muammolarni, jumladan, xarajat, foydalanish imkoniyati va maxfiylik muammolarini ko'rib chiqadi. Tadqiqot ta'lim natijalarini oshirish va talabalarni raqamli dunyoga tayyorlash uchun doimiy izlanishlar va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim tizimlariga integratsiyalash kerakligini bildiradi.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, inovatsiya, texnologiya, virtual reallik, maxfiylik, Innovatsion texnologiyalar, o'quv platformalari.

ABSTRACT

In the current period of digital transformation, the use of innovative technologies in educational systems is becoming more and more widespread. This study aims to explore various technological innovations used in educational systems, such as virtual and augmented reality, gamification, and adaptive learning platforms. The potential benefits of these technologies, such as increased student engagement and motivation, personalized learning experiences, and increased teaching effectiveness, are explored. In addition, this study examines the challenges of implementing these technologies in education, including cost, accessibility, and privacy issues. The study highlights the importance of continuous research and the integration of innovative technologies into educational systems to improve learning outcomes and prepare students for the digital world.

Keywords: Digital transformation, innovation, technology, virtual reality, privacy, Innovative technologies, Educational platforms.

MUNDARIJA:

Anotatsiya	4
Abstrakt	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	6
Keltirilgan qisqartmalar	7
KIRISH	8
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	11
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	11
Tadqiqotning obyekti va predmeti.....	12
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	12
Dissertatsiyaning qisqacha tavsifi.....	13
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	14
1.1 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	14
1.2 Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	17
II BOB. METODOLOGIYA ASOSLARI	22
2.1 Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	22
2.2 Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	22
2.3 Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	22
2.4 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	23
2.5 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	23
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	24
3.1 Oliy ta'lim muassasalari ilmiy-innovatsion faoliyati: maqsadlar, vazifalar, boshqaruv, mexanizmlari	24
3.2 Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.....	32
3.3 Oliy ta'lim muassasalari hamda tashkilotlar hamkorligini rivojlantirish istiqbollari.....	50
XULOSA	60
Tadqiqotda xulosa va takliflar.....	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	62
ILOVALAR	66

KIRISH

Ta'lim biz umurguzaronlik qilayotgan dunyoning ajralmas qismi bo'lib, inson ma'naviy ehtiyojlarini bevosita qondirish orqali moddiy farovonlikni ta'minlaydi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishga katta e'tibor qaratiladi. Chunki ularda butun ta'lim tizimiga qilingan sarmoya jamiyatga kelajakda 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda mazkur ko'rsatkich 4 barobarni tashkil etadi. AQSH YalMning 7.5%ini, Norvegiya 7.6%ini, Xitoy esa 4%ini ta'limga sarflaydi¹. Shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirishda bilimlarni va inson resurslarini asosiy omil sifatida qaraydigan rivojlangan mamlakatlar asosan boy tabiiy resurslarga ega bo'lmagan davlatlar (Yaponiya, Shvetsiya va b.)dir. BMT taraqqiyot dasturi o'tkazgan tadqiqot natijalari yer yuzasida hozirgi kunga qadar to'plangan jami kapitalning 16%i moddiy ko'rinishdagi kapitalga, 20%i tabiiy boyliklarga va qolgan 64%i inson kapitaliga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda². Ta'lim jarayonida inson bilimini shakllantiradi, rivojlantiradi, aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanadi, insonni kuchli, irodali professional kadr bo'lishi uchun ta'lim birinchi o'rinni egallaydi. Ammo, fan-texnika taraqqiy etgan bugungi kunda innovatsion texnika- texnologiyalarni ya'ni, kompyuterlar, planshetlar, electron doskalar, electron darsliklar, interaktiv o'quv qo'llanmalari, o'qitishning interfaol (klaster, keys stadi, venn diagrammasi va h.) metodlarini ta'limga joriy etmay turib, yuqori intellektual salohiyatli, ijodkor, jahon mehnat bozorida o'z o'rniga ega raqobatbardosh kadrlarni shakllantirib bo'lmaydi.

Yurtimizda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, ta'limga innovatsiyalarni, raqamli texnologiyalarni keng targ'ib qilish, talaba yoshlarni sifatli ta'lim materiallari bilan ta'minlash, yoshlarni ta'lim qamrovini oshirish yuzasidan ko'plab choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yilda oily ta'limga qabul parametrlari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sdi, yoshlarni oily ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9%dan 25%ga yetdi³. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning yangi saylangan Senat a'zolariga nutqi 20-yanvar, 2020-yil

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish" davlat inspeksiyasi

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi